

## QASHQADARYO VILOYATI AHOLISINING MUSTAQILLIK YILLARIDAGI DEMOGRAFIK HOLATI VA ETNIK TARKIBI

**Salayev Fazliddin Shamsiddin o`g`li**

O`zMU tarix fakulteti, etnografiya, etnologiya  
va antropologiya yo`nalishi 2-kurs magistranti (Toshkent, O`zbekiston)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O`zbekistonning janubida joylashgan, respublika iqtisodiy-ijtimoiy hayotida alohida ahamiyat kasb etadigan muhim viloyatlardan biri bo`lgan Qashqadaryo viloyati aholisining mustaqillik yillaridagi demografik holati va ularning milliy tarkibi haqida so`z boradi. Shu o`rinda Qashqadaryo vohasi demografiyasi respublikadagi boshqa hududlardan farqli ravishda mustaqillik yillarida aholining o`sinh surati, tug`ilish va o`limning kamayishi, farzand ko`rish ketma-ketligini qisqarishi aholi zichligi va joylashuvidagi o`zgarishlar, o`rtacha umr ko`rish darajasining ortishi, shahar aholisining o`sishi, qishloq aholisiga nisbatan sekinlashuvi, migrasiyaning faollashuvi haqida statistik to`plamlar va axborotnomalar, arxiv materiallari va adabiyotlar orqali jamlangan ma`lumotlar berib o`tilgan.

**Kalit so`zlar:** Qashqadaryo vohasi, demografiya, etnik tarkib, migratsiya, aholishunoslik, Janubiy O`zbekiston, qishloq aholisi, shahar aholisi.

Qashqadaryo viloyatidagi 1991-2021-yillardagi demografik jarayonlar, xususan, aholi sonidagi umumiy o`zgarishlar, qishloq va shahar aholisining tarkibi, shahar aholisining ko`payishi, to`g`ilish va o`limning biri-biridan farqi, vohaning respublikadagi boshqa hududlardan farqi va o`ziga xos xususiyatlari, aholi zichligi, viloyat aholisining milliy tarkibi, mehnat resurslari bandligining tarmoq tarkibi va ularning joylashuvi tahlil qilingan.

Ma`lumki, jamiyatdagi demografik voqealar umumiy va muayyan individual tasodifiy sabablar ta`siri ostida amal qiladi. Bu jarayondagi ayrim voqeliklar vujudga kelishi ba`zi sabablarga ko`ra individual va noyobdir, lekin demografik jarayonda ular ketma-ketlik voqealardan iborat bo`lib, ular muntazam ravishda o`zgarib turadi.

Demografik jarayonlar hayotning barcha iqtisodiy va ijtimoiy sohalariga bevosita ta`sir etuvchi jarayon hisoblanadi. Aholishunoslikni rivojlanishining umumiy qonuniyatlari alohida iqtisodiy va tabiiy sharoitlarga ega hududlarda ko`pgina jihatlariga ko`ra murakkab muammolarni keltirib chiqaradi va fan oldiga yangi muammolarni qo`yadi. Chunki, bu jarayonlar inson hayot-mamoti tarzini ifoda etuvchi fandır.

O`zbekistonda demografik holatni baholashda har bir mintaqaning o`ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarur. Chunki, davlat va uning ma`muriy hududlarini rivojlantirishda demografik jarayonlar muhim o`rin tutadi.

Qashqadaryo vohasi demografiyasi respublikadagi boshqa hududlardan farqli ravishda mustaqillik yillarida aholining o`sinh surati, tug`ilish va o`limning kamayishi, farzand ko`rish ketma-ketligini qisqarishi aholi zichligi va joylashuvidagi o`zgarishlar, o`rtacha umr ko`rish darajasining ortishi, shahar aholisining o`sishi qishloq aholisiga nisbatan sekinlashuvi, migrasiyaning faollashuvi bilan izohlanadi.

Kitob, Shahrisabz, tumanlarida aholi o`ta zich joylashganligi, yerning cheklanganligi, o`zlashtiradigan yerlarning qolmaganligi boshqa tumanlardan farqlanadi, aksincha, Chiroqchi, Mirishkor, Muborak, Respublikada o`tgazilgan so`nggi aholi ro`yxati (1989-yil)da jami 19780.0 ming kishi ro`yxatga olingan bo`lib, shundan, Qashqadaryo vohasida aholi soni 1594 ming kishini tashkil qilib, shundan, shahar aholisi 415 ming kishi (umumiy aholining 25%),

qishloq aholisi 1179 ming kishi (umumiy aholining 75%)ni tashkil qilgan. 1992-yilga kelib viloyat aholisi da 1 mln 800 ming tashkil qilgan [1, b, 3].

1995-yil 1mln 975 ming kishi, shundan shahar aholisi 516 ming kishi, qishloq joylardagi 1 mln 449 ming kishi, 1996-yil 2 mln 30 ming kishi, shahar aholisi 527 ming kishi, qishloq aholisi 1 mln 503 ming kishi, 1997-yil 2mln 79 ming kishi, shahar aholisi 538 ming kishi, qishloq aholisi 1 mln 541 ming kishi, 1998-yil 2 mln 1123 ming kishi, shahar aholisi 546 ming kishi, qishloq aholisi 1 mln 577 ming kishi, 1999-yil 2 mln 170 ming kishi, shundan shahar aholisi 554 ming, qishloq aholisi 1 mln 616 ming kishi, 2000-yil 2 mln 216 ming kishi [2, b, 127], shundan shahar aholisi 562 ming, qishloq aholisi 1 mln 654 ming kishi, 2001-yil 2 mln 257 ming kishi, shahar aholisi 569 ming kishi, qishloq aholisi 1 mln 688 kishi, 2002-yil 2mln 2 98 ming kishi, shundan shahar aholisi 576 ming kishi, qishloq aholisi 1 mln 722 ming kishi, 2003-yil 2 mln 340 ming kishi, shahar aholisi 583 min kishi, qishloq aholisi 1 mln 757 ming kishini tashkil qilgan [3, b, 54-55].

Agar aholining milliy tarkibiga e'tibor beradigan bo'lsak, 1989-yilda aholining 85 % ni o'zbeklar tashkil qilgan bo'lsa, 1995-yilga kelib 91%ni o'zbeklar tashkil qilgan. 2013-yildagi ma'lumotga ko'ra viloyat aholisi milliy tarkibida o'zbeklar keskin ajralib turadi – 92,3 %. Ikkinchi o'rinda tojiklar – 4,3 %. Qolgan millat vakillaridan turkman va ruslar ko'proq. Bu jarayonni mustaqillikning dastlabki vaqtlaridagi aholi migrasiyasi bilan izohlash mumkin [4, b, 650]. Chunki, Respublika mustaqillikka erishgandan keyingi yillarda tub joy aholisi bo'lmagan millat vakillarining o'z vatanlariga qaytishi, o'tish davri qiyinchiliklarining ayniqsa, shahar joylarda sezilarli bo'lganli, tug'ilish va tabiiy ko'payish sur'atlarining tushib borishi mamlakat umumiy urbanizasiya darajasining pasayishiga olib keldi. Ushbu holat Janubiy O'zbekiston shaharlarida ham kuzatildi, biroq u Toshkent va Farg'ona iqtisodiy rayonlaridagi kabi keskin ko'rinishga ega bo'lmadi. Bunga tahlil qilinayotgan mintaqada yuqoridagi iqtisodiy rayonlardagi singari yirik sanoat shaharlarining (manfiy migrasiya saldosi natijasida Angren, Chirchiq, Olmaliq va boshqa shaharlarda aholi soni kamaygan) deyarli yo'qligi hamda tabiiy ko'payish jarayonlarining mamlakat o'rtacha darajasidan ancha baland ekanligi sabab bo'lgan.

Viloyatda 1999-yilda aholi soni 2166,3 ming kishini tashkil etib, shundan erkaklar 1061,5 ming kishi, ayollar 1104,8 ming kishini tashkil qilgan. Shundan shahar aholisi 553,1 ming kishini tashkil etib, erkaklar 265,5 ming kishi, ayollar 287,6 ming kishini, qishloq aholisi 1613,2 ming kishi bo'lib, erkaklar 790,4 ming kishini, ayollar 822,8 ming kishini tashkil qilgan. 2000-yilda 2212,7 ming kishini tashkil etib, shundan erkaklar 1084,2 ming kishi, ayollar 1128,5 ming kishini tashkil qilgan. Shundan shahar aholisi 561,7 ming kishini tashkil etib, erkaklar 269,6 ming kishi, ayollar 292,1 ming kishini, qishloq aholisi 1651,0 ming kishi bo'lib, erkaklar 807,3 ming kishini, ayollar 843,7 ming kishini tashkil qilgan.

2001-yilda 2294,7 ming kishini tashkil qilib, shundan erkaklar 1104,3 ming kishi, ayollar 1149,4 ming kishini tashkil qilgan. Shundan shahar aholisi 563,7 ming kishini tashkil etib, erkaklar 270,6 ming kishi, ayollar 293,1 ming kishini, qishloq aholisi 1690,0 ming kishi bo'lib, erkaklar 828,1 ming kishini, ayollar 861,9 ming kishini tashkil qilgan.

2002-yilda aholi soni 2294,7 ming kishini tashkil qilib, shundan erkaklar 1148,9 ming kishi, ayollar 1145,8 ming kishini tashkil qilgan. Shundan shahar aholisi 572,5 ming kishini tashkil etib, erkaklar 286,9 ming kishi, ayollar 285,6 ming kishini, qishloq aholisi 1722,2 ming kishi bo'lib, erkaklar 862 ming kishini, ayollar 860,2 ming kishini tashkil qilgan [5].

Aholining milliy tarkibi bo'yicha viloyatda 1999-yilda o'zbeklar 1958,3 ming, qozoqlar 2,0 ming, tojiklar 122,9 ming, qirg'izlar 0,3 ming, turkmanlar 26,8 ming, ruslar 22,8 ming, boshqa millatlar 33,2 ming kishini tashkil qilgan.

2000-yilda o'zbeklar 2000,3 ming, qozoqlar 2,0 ming, tojiklar 125,5 ming, qirg'izlar 0,3 ming, turkmanlar 27,4 ming, ruslar 23,3 ming, boshqa millatlar 33,9 ming kishini tashkil qilgan. 2002-yilda o'zbeklar 2129,5 ming, qozoqlar 1,9 ming, tojiklar 107,4 ming, qirg'izlar 0,2 ming, turkmanlar 27,9 ming, ruslar 24,1

ming, boshqa millatlar 42,2 ming kishini tashkil qilgan. Viloyat bo'yicha o'rtacha 1 kv.km ga 1999-yilda 75,8 ming kishi to'g'ri kelgan bo'lsa, 2002-yilda 80,1 ming kishi to'g'ri kelgan. Demak aholi yildan-yilga zichlashib borgan. 2004-yilda viloyat aholisi 2 mln 378,2 ming kishini, 2005-yil 2 mln 419,8 ming kishini, 2006-yilda 2 mln 462,2 ming kishini tashkil qilgan, shundan erkaklar 2004-yilda 1 mln, 191,2 ming kishi, ayollar 1 mln 187,0 ming kishi, 2005-yilda 1 mln 211,8 ming kishi, ayollar 1 mln 208,0 ming kishini, 2006-yilda 1 mln 233,2 ming kishi, ayollar 1 mln 229,0 ming kishini tashkil qilgan.

Shuningdek, shaharda yashaydigan aholi 2004-yilda 587,5 ming kishini, qishloq aholisi 1 mln 790,7 ming kishini tashkil qilgan, shundan shaharda erkaklar 294,0 ming kishi qishloqda esa 897,2 ming kishi, shahar ayollari soni 293,3 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, qishloqda istiqomat qiluvchi ayollar 893,5 ming kishini tashkil qilgan.

2006-yilda shahar aholisi 606,7 ming kishini, qishloq aholisi 1 mln 855,5 ming kishini tashkil qilgan, shundan shaharda yashaydigan erkaklar 303,5 ming kishi, qishloqda esa 929,7 ming kishini tashkil etgan, shaharda istiqomat qiluvchi ayollar soni 303,2 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, qishloqda istiqomat qiluvchi ayollar 925,8 ming kishini tashkil qilgan [6].

Aholining milliy tarkibi bo'yicha 2004-yilda viloyatda o'zbeklar soni 2 mln 170,3 mingta, tojiklar 111,2 mingta, turkmanlar 29,0 mingta, ruslar 23,9 mingta, totorlar 10,0 mingta, qozoqlar 1,9 mingta, koreyslar 1,3 mingta, qirg'izlar 0,2 mingta boshqa millatlar 30,4 mingtani tashkil qilgan.

2006-yilda viloyatda o'zbeklar soni 2 mln 251,5 mingta, tojiklar 113,9 mingta, turkmanlar 30,0 mingta, ruslar 23,1 mingta, totorlar 9,7 mingta, qozoqlar 2,0 mingta, koreyslar 1,2 mingta, qirg'izlar 0,2 mingta boshqa millatlar 30,6 mingtani tashkil qilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, 2004-2006 yillar davomida o'zbeklar, qozoqlar tojiklar va turkmanlar soni ortgan bo'lsa, ruslar, totorlar va koreyslar soni kamaygan. Bunga asosiy sabab, ulardagi tug'ilish va migratsiya jarayonlari bilan bog'liq.

Viloyat aholisining milliy tarkibi bo'yicha 2011-yilda o'zbeklar 2560,6 ming kishi, tojiklar 120,4 ming kishi, turkmanlar 32,1 ming kishi, ruslar, 21,4 ming kishi, totorlar 9,1 ming kishi, boshqa millatlar 34,2 ming kishini tashkil qilgan. 2014-yilda aholining milliy tarkibi o'zbeklar 2675,9 ming kishi, tojiklar 122,4 ming kishi turkmanlar 32,6 ming kishi, ruslar 21,1 ming kishi, totorlar 8,7 ming kishi, boshqa millatlar 34,6 ming kishini tashkil qilgan [7].

Yuqorida yoritib o'tilganlardan xulosa qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi aholisi mustaqillik yillarda sezilarli darajada ko'payishi bilan bir qatorda aynan aholi soni va uning tarkibini tadqiq etish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Qashqadaryo viloyati aholisining mustaqillik yillarida salmoqli ko'payib borishi, shahar aholisining qishloq aholisiga nisbatan sezilarli darajada ko'payishi mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ijobiy ta'sir o'zkaqmoqda. Mintaqa aholisining milliy tarkibi ham xilma-xilligi bilan ajralib turishi e'tiborga molik. Yuqoridagi omillar mazkur sohalarni yanada chuqurroq tadqiq etishni talab qiladi. Mazkur sohani tadqiq etadigan soha vakillarining ishlariga yanada ma'suliyat bilan yondashib, yangiliklar yaratishga undaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Қашқадарё ҳақиқати 1992 йил. 22 февраль 3.б.
2. Каримов И.А. Ватан озодлиги, халқимнинг омонлиги, юртимнинг равнақи, ҳар бир оила фаровонлиги – мен учун олий саодат. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. 127– б.
3. Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси йиллик статистик тўплам.- Т.2005 й.54-55 б.
4. Ўзбекистон Республикаси.Энциклопедия. М. Аминов ва бошқалар.-Т.1997й.650-б
5. Qashqadaryo viloyatining 1999-2019-yillarda viloyat pasporti ma'lumotlari.
6. www.qashstat.uz.